

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**BANKLARDA RISKLARNI BAHOLASH TIZIMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI**

***Karimov Shamsiddin Akram o‘g‘li***

*Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish  
qo‘mitasi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada banklardagi mavjud risklar va ularning turlari, shuningdek banklarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar hamda ularni baholash zaruriyati keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** risk, kredit riski, foiz riski, valyuta riski, operatsion risk, likvidlilik riski, bozor riski.

**ABSTRACT:** This article describes the existing risks in banks and their types, as well as the risks that may arise in banks and the need to assess them.

**Key words:** risk, credit risk, interest rate risk, currency risk, operational risk, liquidity risk, market risk.

## **KIRISH**

Yangi O‘zbekiston sharoitida tijorat banklarining o‘rni va ularning iqtisodiyotdagi ulushi toboro ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iboratdir.<sup>1</sup> Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Tijorat banklari eng zamonaviy xizmatlarni ko‘rsatib, har bir mijozning ko‘ngliga yo‘l topa oladigan bo‘lishi kerak”.

Bugungi kunda banklar dunyodagi eng yirik moliya institutlari hisoblanib, har bir insonning hayoti davomida ular bog‘liq munosabatlarda to‘qnash keladi. Shu bilan birga, tijorat banklari faoliyat yuritayotganda tavakkalchilikka duch kelishadi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023-yil, 151-modda.

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

5-to’plam 2-son mart 2024

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Risklar tijorat banklarining faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklari faoliyatiga xos bo'lgan asosiy risk turlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- kredit riski;
- foiz riski;
- valyuta riski;
- operatsion risk;
- likvidlilik riski;
- bozor riski.<sup>2</sup>

Kredit berish tijorat banklarining asosiy daromad manbalaridan biri ekanligini hisobga olsak, kredit riski banklar duch keladigan eng muhim risklardan biridir. Shu sababli, ushbu kredit bilan bog'liq riskni boshqarish banklarning rentabelligiga ta'sir qiladi.

Kredit riski - bu qarz oluvchiga pul mablag'larini taqdim etganda, qarz beruvchining pul yo'qotishi deyishimiz mumkin. Kredit riski qarz oluvchining kreditni qaytara olmasligi natijasida moliyaviy yo'qotish ehtimoli. Kredit riskini aniq baholay olmaslik kreditorning asosiy qarz va foizlarni olmaslik xavfini keltirib chiqaradi, bu esa pul oqimining uzilishiga va undirish uchun xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Kreditor majburiyatlarni bajarmasligini aniq bilish imkonsiz bo'lsada, kredit riskini to'g'ri baholash va boshqarish yo'qotishlarni kamaytirishi mumkin. Buning uchun har bir bank kredit risklarini baholash uchun alohida bo'linmalar orqali tashkiliy tuzilmalarni va vazifalar taqsimotini ishlab chiqqan.

Banklar kredit riskini bir nechta strategiyalar bilan boshqarishi mumkin. Ular kreditlash uchun muayyan standartlarni belgilashlari, shu jumladan qarz oluvchilardan kredit tarixini o'rganib chiqishi mumkin. Keyin ular o'z kredit portfellarini muntazam ravishda kuzatib borishlari, qarz oluvchilarning kredit qobiliyatidagi har qanday o'zgarishlarni baholashlari va har qanday tuzatishlar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

kiritishlari mumkin.

Tijorat banklarida “risk-menejment” tizimining rivojlanishi bank risklari darajasini pasaytirish imkonini beradi. Natijada, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar ta’sirida bankning moliyaviy barqarorligi yomonlashishining oldi olinadi.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati haqida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 4-iyuldagagi yalpi majlisidagi nutqidan.
5. Isakov J.Y., Adilova Z.Dj., Xonto‘rayev B.A. “Bank risklari” o‘quv qo‘llanma, Iqtisodiyot, Toshkent-2020, 12-bet.

[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.bank.uz](http://www.bank.uz)

1.